



**BO‘LAJAK O‘ZBEK TILI O‘QITUVCHILARINI RAQAMLI TA’LIM
OLAMIGA TAYYORLASH: METODIK YONDASHUVLAR**

Shakirova Sevara Toxirjon qizi

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

magistrant

E-pochta: sevara.inboxx@gmail.com

ORCID ID: 0009-0001-2094-1225

Annotatsiya: *Mazkur maqolada bo‘lajak o‘zbek tili o‘qituvchilarini raqamli ta’lim olamiga tayyorlash masalasi zamonaviy ta’lim islohotlari kontekstida ko‘rib chiqilgan. Raqamli savodxonlik tushunchasi, uning tarkibiy qismlari, xorijiy tajribalar asosida tahlil qilingan. Jumladan, DigComp va DigCompEdu modellariga asoslangan xorijiy tajribalar umumlashtirilib, ularni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli savodxonlik, raqamli ta’lim, metodik yondashuv, DigComp, DigCompEdu, UNESCO, elektron platforma, pedagogik kompetensiya, raqamli kompetensiya.*

**ПОДГОТОВКА БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ УЗБЕКИСТАНА К
МИРУ ЦИФРОВОГО ОБРАЗОВАНИЯ: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ
ПОДХОДЫ**

Шакирова Севара Тохиржон кизи

*Магистрант, Ташкентский государственный
университет узбекского языка и литературы*

E-mail: sevara.inboxx@gmail.com

ORCID ID: 0009-0001-2094-1225

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос подготовки будущих узбекских учителей к миру цифрового образования в контексте современных образовательных реформ. На основе зарубежного опыта



анализируется понятие цифровой грамотности, ее составляющие. В частности, обобщен зарубежный опыт на основе моделей DigComp и DigCompEdu и разработаны рекомендации по их адаптации к условиям Узбекистана.

Ключевые слова: цифровая грамотность, цифровое образование, методический подход, DigComp, DigCompEdu, UNESCO, электронная платформа, педагогическая компетентность, цифровая компетентность.

PREPARING FUTURE UZBEKISTAN TEACHERS FOR THE WORLD OF DIGITAL EDUCATION: METHODOLOGICAL APPROACHES

Shakirova Sevara Toxirjon qizi

Master's degree student, Tashkent State University of

Uzbek Language and Literature

E-mail: sevara.inboxx@gmail.com

ORCID ID: 0009-0001-2094-1225

Annotation: This article considers the issue of preparing future Uzbek teachers for the world of digital education in the context of modern educational reforms. The concept of digital literacy, its components, is analyzed based on foreign experience. In particular, foreign experience based on the DigComp and DigCompEdu models is summarized and recommendations are developed for adapting them to the conditions of Uzbekistan.

Keywords: digital literacy, digital education, methodological approach, DigComp, DigCompEdu, UNESCO, electronic platform, pedagogical competence, digital competence .

Kirish

Bugungi kunda ta'lim sohasi global miqyosda keskin o'zgarishlar, raqamli transformatsiya va texnologik yangilanishlar jarayonida shakllanmoqda. Ayniqsa, pandemiyadan keyingi davrda raqamli ta'lim vositalari asosiy o'quv muhitiga aylana boshladi. Bu esa o'qituvchidan nafaqat o'z fanini chuqur egallash, balki raqamli



texnologiyalarni puxta o'zlashtirish, ularni pedagogik faoliyatga samarali tatbiq etish qobiliyatini ham talab qiladi.

Bo'lajak o'zbek tili o'qituvchilarining raqamli savodxonligini rivojlantirish –nafaqat texnik ko'nikmalarni, balki metodik, kommunikativ va axborot madaniyatini ham shakllantirishni anglatadi. Ushbu maqolada mazkur jarayonning nazariy asoslari, dolzarbligi, xorijiy tajribalar va metodik yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarni raqamli ta'lim olamiga tayyorlashda qo'llanilishi mumkin bo'lgan samarali strategiyalar ilgari suriladi.

Nazariy asoslar va ilmiy muhokamalar

Raqamli savodxonlik (digital literacy) — bu zamonaviy jamiyatda axborot va raqamli texnologiyalar bilan ongli, xavfsiz, samarali va tanqidiy ishlash qobiliyatidir. Bu tushuncha avvalo Paul Gilster (1997) tomonidan ilgari surilgan bo'lib, u raqamli savodxonlikni “axborotni aniqlash, uni baholash, tahlil qilish va zamonaviy texnologiyalar yordamida maqsadga muvofiq ishlatish qobiliyati” deb ta'riflagan [1].

Bugungi ta'lim jarayonida raqamli savodxonlik quyidagi asosiy tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: axborot savodxonligi, kommunikativ savodxonlik, texnik savodxonlik, tanqidiy fikrlash, media savodxonlik, raqamli etik madaniyat.

Yevropa Ittifoqi tomonidan ishlab chiqilgan DigComp (Digital Competence Framework for Citizens) modeli raqamli kompetensiyalarni 5 asosiy yo'nalishga ajratgan: axborotni boshqarish, kommunikatsiya, raqamli kontent yaratish, xavfsizlik, va texnik muammolarni hal qilish [2].

Tahlillar va natijalar

Ushbu tadqiqotda nazariy va tahliliy metodlar asos qilib olindi. Xususan, raqamli savodxonlikni shakllantirishga doir xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar tahlil qilindi. Taqqoslash va sintez usullari orqali bo'lajak o'zbek tili o'qituvchilarini raqamli ta'limga tayyorlashga doir metodik yondashuvlar o'rganildi.

Metodik tahlil jarayonida quyidagi bosqichlarga e'tibor qaratildi: raqamli savodxonlik tushunchasining ta'rif va tuzilmasini aniqlash; pedagogik ta'lim tizimida raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishga doir xorijiy tajribani



umumlashtirish; mahalliy ta'lim muassasalarida qo'llanilayotgan metodik ishlanmalarni ko'rib chiqish va metodik tavsiyalarni ishlab chiqish.

Xorijiy amaliyotda raqamli savodxonlikni rivojlantirish bo'yicha tizimli yondashuvlar shakllangan. Masalan, DigCompEdu modeli (Yevropa Ittifoqi, 2017) o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini quyidagi yo'nalishlarda baholashni taklif etadi: raqamli resurslardan foydalanish, o'quvchilar bilan raqamli muloqot, dars jarayoniga texnologiyani integratsiya qilish va raqamli baholash [3].

Turkiyadagi universitetlarda bo'lajak o'qituvchilar uchun "E'gitimde Teknoloji Kullanımı" moduli doirasida pedagogik faoliyatni raqamli texnologiyalar yordamida olib borish amaliyoti o'rgatiladi. Ayniqsa, Kahoot, Canva, Edpuzzle, Padlet kabi vositalardan foydalanish orqali talabalar dars loyihalarini raqamli shaklda ishlab chiqadilar [4]. Shuningdek, UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan "ICT Competency Framework for Teachers" (2021) modeli ham o'qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu modelda o'qituvchilarning texnologiyani rejalashtirish, amalda qo'llash va o'quvchilarga yo'naltirish bo'yicha bosqichma-bosqich yondashuvlar taklif etiladi [5].

O'zbekistonda bu jarayon hali boshlang'ich bosqichda. OTMlarda ayrim fanlarda raqamli resurslardan foydalanilayotgan bo'lsa-da, o'zbek tili o'qituvchilari uchun metodik ko'rsatmalar yetarli emas. Hozirgi kundagi holatni quyidagi asosiy jihatlar orqali tahlil qilish mumkin:

1. **Metodik qo'llanmalarning eskirganligi:** Amaldagi o'quv-uslubiy materiallarning aksariyati raqamli vositalarni qanday integratsiya qilishni ko'rsatmaydi. Ular ko'proq an'anaviy dars uslublarini takrorlaydi.

2. **Raqamli platformalarning o'zlashtirilmaganligi:** OTMlarda Google Classroom, Padlet, Canva kabi vositalardan foydalanish faqat umumiy tushuncha darajasida qolmoqda. O'zbek tili faniga moslashtirilgan real interaktiv resurslar yo'q.

3. **O'qituvchilarni tayyorlashda amaliyot yetishmaydi:** Talabalar "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari" fanini o'qisalar-da, bu fan o'zbek tili



metodikasi bilan bog‘lanmaydi. Masalan, Kahoot yoki LearningApps ilovalari orqali o‘zbek tilida interaktiv topshiriqlar tuzish bo‘yicha alohida mashg‘ulotlar mavjud emas.

4. **Ko‘p tillilik muammosi:** Ko‘plab raqamli resurslar (masalan, Kahoot, Quizizz) ingliz yoki rus tilida. O‘zbek tilidagi interfeys va kontentlar yetarli emas, bu esa bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘z fanlari asosida mustaqil resurs ishlab chiqishini qiyinlashtiradi.

5. **Metodik tajribaning umumlashtirilmaganligi:** Ba’zi ustozlar zamonaviy usullarni qo‘llamoqda, ammo bu tajribalar tizimlashtirilmagan, yozma shaklda tarqatilmaydi va OTM dasturlariga integratsiyalanmayapti.

Raqamli savodxonlikka doir metodik muammolarni bartaraf etish va mavjud bo‘shliqlarni to‘ldirish maqsadida hozirda muallif tomonidan **“Raqamli ustoz”** nomli elektron platforma ishlab chiqilmoqda. Ushbu platforma bo‘lajak va amaldagi o‘zbek tili o‘qituvchilari uchun metodik resurslar, multimediya dars ishlanmalari, interaktiv topshiriqlar va raqamli ko‘nikmalarni rivojlantiruvchi vositalarni taklif etadi.

Saytni to‘g‘ri yo‘naltirish uchun **maktabda faoliyat yuritayotgan o‘zbek tili o‘qituvchilari hamda bakalavriat talabalari o‘rtasida maxsus so‘rovnoma (anketa) tuzildi.** Ushbu anketa orqali ularning:

- Qanday **raqamli platforma va ilovalardan foydalanayotgani** (masalan: Microsoft Word, Microsoft Excel, Google Form, Canva, Zoom, PowerPoint);
- **Raqamli savodxonlik darajasi** (axborotni topish, tanlash, tekshirish, saqlash va baholashga doir);
- Interaktiv dars yaratishdagi qiyinchiliklari;
- Raqamli xavfsizlik va onlayn etikaga munosabati;
- O‘zbek tilini raqamli vositalar bilan bog‘lay olish kompetensiyasi kabi jihatlar o‘rganilmoqda.

Anketa namunaviy savollari:



1. Siz dars jarayonida quyidagi vositalardan qaysilaridan foydalanasiz?
(Ko'p variantli: Microsoft Word, Microsoft Excel, Google Forms, Canva, Boshqalar)
2. Sizningcha, o'zbek tili darslari uchun qanday raqamli ilovalar mos?
3. Axborotni internetda izlashda eng ko'p foydalanadigan manbangiz nima?
4. Raqamli baholash vositalari (onlayn test, elektron jurnal) haqida bilasizmi?
5. Interaktiv topshiriqlarni yaratish uchun mustaqil ravishda raqamli platformada ishlay olasizmi?

Ushbu so'rovnomadan olingan natijalar asosida "Raqamli ustoz" saytiga eng ko'p so'ralgan va ehtiyoj sezilgan materiallar joylashtiriladi. Shuningdek, raqamli savodxonlik bo'yicha bepul o'quv kurslari, dars namunalarining video ko'rinishlari ham ishlab chiqilishi rejalashtirilgan.

Shuningdek, bo'lajak o'zbek tili o'qituvchilarini raqamli kompetensiyalarga tayyorlashda muallif tomonidan ishlab chiqilgan **"Raqamli ta'lim olamida o'zbek tili o'qituvchisi"** nomli tavsiya namunaviy o'quv dastur alohida ahamiyatga ega. Ushbu dastur **bakalavr bosqichidagi talabalar uchun mo'ljallangan** bo'lib, raqamli savodxonlikni nazariy va amaliy jihatdan shakllantirishga yo'naltirilgan.

Bu yondashuvlar orqali maqolada ilgari surilgan metodik takliflar amaliyotda ham sinovdan o'tmoqda va O'zbekiston sharoitiga mos model sifatida shakllantirilmoqda.

Xulosa

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Bo'lajak o'zbek tili o'qituvchilari raqamli ta'lim olamiga tayyor bo'lishi uchun nafaqat texnik bilimlarga, balki pedagogik-texnologik metodikalarga ham ega bo'lishi lozim.
2. Xorijiy tajribalar o'rganilib, ularni mahalliy sharoitga moslashtirish orqali samarali natijalarga erishish mumkin.



3. OTMlarda “**Raqamli ta’lim olamida o‘zbek tili o‘qituvchisi**” fanini yo‘lga qo‘yish, interaktiv resurslardan foydalanishga doir metodik qo‘llanmalarni yaratish va bo‘lajak o‘qituvchilar uchun amaliy seminarlarni tashkil etish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Gilster, P. (1997). Digital Literacy. Wiley & Sons.
https://openlibrary.org/books/OL1007098M/Digital_literacy
2. DigComp 2.0: The Digital Competence Framework for Citizens. Update Phase 1: the Conceptual Reference Model.
<https://publications.jrc.ec.europa.eu/repository/handle/JRC101254>
3. Redecker, C. (2017). European Framework for the Digital Competence of Educators (DigCompEdu). Publications Office of the European Union.
<https://publications.jrc.ec.europa.eu/repository/handle/JRC107466>
4. Yıldız, A. (2022). Eğitimde Teknoloji Kullanımı. Anadolu Üniversitesi Yayınları. https://www.anadolu.edu.tr/Yayinlar/teknoloji_kullanimi.pdf
5. UNESCO (2021). ICT Competency Framework for Teachers.
<https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000265721?posInSet=2&queryId=3c4ddf5f-72c3-498c-afe6-f8f94c913624>